

OLIIY TA'LIMDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY-MEDIA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO HUQUQIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕДИЙНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

INTERNATIONAL LEGAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL-MEDIA COMPETENCE OF FUTURE SPECIALISTS IN HIGHER EDUCATION.

TASHMATOVA KAMOLA ABDURASHIDOVNA

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada global axborotlashuv sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari, xususan, folklor va etnografiya yo'nalishi bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-media kompetentligini rivojlantirishning pedagogik zarurati tadqiq etilgan. Sohaga oid xalqaro deklaratsiyalar, harita va konvensiyalarning qiyosiy-komparativ tahlili asosida media-ta'limning aksiologik, gnoseologik hamda praksiologik asoslari tizimlashtirilgan. Shuningdek, nomoddiy madaniy merosni asrash va raqamli formatga o'tkazishda talabalarning tahliliy media ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha pedagogik invariantlar va xalqaro huquqiy-metodik manbalarning o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy-media kompetentlik, oliy ta'lim, folklor va etnografiya, komparativ tahlil, Grunvald deklaratsiyasi, raqamli meros, nomoddiy madaniy meros, aksiologiya.

Аннотация: В данной статье исследуется педагогическая необходимость развития профессионально-медийной компетентности студентов высших учебных заведений, в частности будущих специалистов в области фольклора и этнографии, в условиях глобальной информатизации. На основе компаративного анализа международных деклараций, хартий и конвенций систематизированы аксиологические, гносеологические и прaksiологические основы медиа-образования. Обоснована роль аналитических медиа-навыков студентов, а также международно-правовых и методических источников в сохранении и переводе в цифровой формат нематериального культурного наследия.

Ключевые слова: профессионально-медийная компетентность, высшее образование, фольклор и этнография, компаративный анализ, Грюнвальдская декларация, цифровое наследие, нематериальное культурное наследие, аксиология.

Abstract: This article explores the pedagogical necessity of developing the professional media competence of higher education students, particularly future specialists in folklore and ethnography, in the context of global informatization. Based on a comparative analysis of international declarations, charters, and conventions, the axiological, gnoseological, and praxiological foundations of media education are systematized. Furthermore, the role of students' analytical media skills and international legal-methodological frameworks in preserving and digitalizing intangible cultural heritage is substantiated.

Keywords: professional media competence, higher education, folklore and ethnography, comparative analysis, Grunwald Declaration, digital heritage, intangible cultural heritage, axiology.

. Kirish (Introduction)

Bugungi kunda an'anaviy folklor butunlay yangi qiyofa va o'ziga xos zamonaviy tendensiyalar bilan jadal rivojlanib bormoqda. Endilikda folklor insonlarning shunchaki rekreatsiyaviy (hordiq chiqarish) ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lmay, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini shakllantiruvchi dinamik mexanizmga aylanmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, zamonaviy oliy ta'lim paradigmasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-media kompetentligini shakllantirish masalasi global axborotlashuv jarayonida muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon miqyosida media-savodxonlik va raqamli merosni muhofaza qilishga oid qabul qilingan Grunvald deklaratsiyasi (1982) [1], Aleksandriya deklaratsiyasi (2005) [2], Fez deklaratsiyasi (2011) [3] hamda UNESCOning Global baholash tizimi [4] kabi fundamental hujjatlar ushbu sohadagi strategik bosqichlar hisoblanadi. Mazkur xalqaro-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish, oliy ta'limda madaniyat va san'at yo'nalishi talabalarining raqamli savodxonligini tizimli rivojlantirish metodikasini belgilashda tayanch poydevor bo'lib xizmat qiladi.

2. Tadqiqot metodologiyasi (Methods)

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, retrospektiv va qiyosiy-pedagogik tahlil hamda komparativistik metodlardan foydalanildi. Oliy ta'lim tizimida media-ta'limni shakllantirishning tarixiy-pedagogik dinamikasini aniqlash maqsadida UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan 1982–2013-yillar oralig'ida qabul qilingan xalqaro deklaratsiya, xarita va konvensiyalar qiyosiy tahlil etildi.

Xalqaro miqyosda oliy ta'lim talabalarining kasbiy-media kompetentligini takomillashtirish jarayoni uchta muhim o'q qutbining sinergetik birligiga tayanishi metodologik mezon qilib olindi:

- Aksiologik yondashuv – milliy

va umuminsoniy media-qadriyatlarga asoslanish;

- Gnoseologik yondashuv – media-makondagi axborotlarni va madaniy kontentlarni chuqur anglash va saralash;

- Praksiologik yondashuv – amaliy faoliyatda individual va innovatsion media-kontent yaratish ko'nikmasini shakllantirish.

3. Tahlil va natijalar (Results and Discussion)

Olib borilgan komparativ (qiyosiy) tahlillar shuni asoslaydiki, jahon miqyosida qabul qilingan xalqaro hujjatlar oliy ta'lim dasturlarini mediatizatsiyalashgan jamiyat talablariga moslashtirishga qaratilgan. Biz ushbu konseptual tushunchalarni birlashtirish orqali oliy ta'limda talabalar ongida o'z mutaxassisligi doirasida kasbiy-media kompetentlikning yaxlit birligini kuzatishimiz mumkin (1-jadval).

6 Raqamli merosni asrash bo'yicha UNESCO Haritasi (2003) [6] Raqamli tarzda yaratilgan intellektual va madaniy boyliklarni asrash hamda kelajak avlodga bezavol yetkazish. Tadqiqotning huquqiy-texnologik asosi.

Grunvald deklaratsiyasi (1982) – ushbu xalqaro hujjat media-pedagogikaning asosi va boshlang'ich nuqtasidir. Aynan mana shu Deklaratsiyadan keyin ilmfan olamiga “Media-ta'lim” tushunchasi kirib keldi va rivojlandi. Hujjatda axborot olami (radio, matbuot, televideniye) va umuman media-makonda yuz berayotgan shiddatli o'zgarishlarni inkor etmagan holda, xalq madaniy mahsulotlarining asl holatini asrab qolish va keng targ'ib etishga chaqiriladi. Media-savodxonlik tushunchasi axborotlarning yetkazib beruvchidan qabul qiluvchigacha sof holda yetib borishini qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, ushbu Deklaratsiyaning yana bir muhim pedagogik jihat — media va axborot texnologiyalarini o'rganishni maktabdan oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz jarayonda tashkil etishni, ya'ni ta'lim

1-jadval. Jahon miqyosida qabul qilingan sohaviy hujjatlarning qiyosiy-pedagogik tahlili

№	Xalqaro hujjat nomi	Maqsadi va ahamiyati	Tadqiqot bilan aloqadorligi
1	Grunvald deklaratsiyasi (1982) [1]	Oliy ta'lim talabalarini "passiv iste'molchidan" "faol interpretator"ga aylantirishga qaratilgan ilk media-ta'lim sohasidagi hujjat.	Media-ta'limning retrospektiv asosi, oliy ta'limda medianing pedagogik-huquqiy asosi.
2	Aleksandriya deklaratsiyasi (2005) [2]	Raqamli jamiyatda media-ta'limni uzluksiz ta'limning asosi va ijodiy fikrlash uchun muhim omil ekanligini asoslagan.	Tadqiqotning gnoseologik asosi.
3	Fez deklaratsiyasi (2011) [3]	Madaniyatlararo muloqotda media-savodxonlikni targ'ib etib, ushbu jarayonda milliy o'zlikni saqlab qolish muammosini ilgari suradi.	Tadqiqotning kommunikativ-etnologik asosi.
4	Global baholash tizimi (2013) [4]	Media-savodxonlikning shakllanganlik darajasini aniqlovchi indikator bo'lib, axborotlarni kiritish, tahlil qilish va yangi mahsulot yaratishni nazarda tutadi.	Tadqiqotning diagnostik-metodik asosi.
5	Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konvensiya (2003) [5]	Nomoddiy madaniy merosning barcha shakllarini (og'zaki an'analar, ijro san'ati, urf-odatlar, hunarmandchilik) muhofaza qilish, asrash va targ'ib etish.	Tadqiqot obyekti sifatida olingan folklor va etnografiya ta'lim yo'nalishi talabalarining media-resurslar orqali xabardorligini oshirish asosi.
6	Raqamli merosni asrash bo'yicha UNESCO Haritasi (2003) [6]	Raqamli tarzda yaratilgan intellektual va madaniy boyliklarni asrash hamda kelajak avlodga bezavol yetkazish.	Tadqiqotning huquqiy-texnologik asosi.

dasturlariga va darsliklarga tizimli kiritishni tavsiya qiladi. Bu orqali ta'lim oluvchida shunchaki mexanik-texnik ko'nikma emas, balki fan mazmunidan kelib chiqib yangi bilimlarni anglash jarayonida faol subyektlik ko'nikmasi shakllanadi. Medianing ta'limga integratsiyasi haqiqiy ma'lumotlarni saralash va tahlil qilish, ular orqali milliy

madaniy merosni asrash va keng targ'ib qilish imkoniyatini kengaytiradi. Soha rivoji axborot-media industriyasi va oliy ta'lim o'rtasidagi ijtimoiy-institutsional hamkorlik tizimini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Raqamli merosni asrash bo'yicha UNESCO Haritasi (2003) – raqamli muhitni tartibga solish va muhofaza qilish bo'yicha

asosiy metodologik hujjat hisoblanadi. To'rtta bob va 12 ta moddadan iborat ushbu Harita raqamli merosni anglash va uning muhofazasini kuchaytirish bo'yicha mukammal yo'riqnomadir. Hujjatning 1-moddasida raqamli merosning ko'lamini tahlil qilinib, uning raqamli shaklda yaratilgan yoki an'anaviy formatdan raqamli formatga o'tkazilgan texnik, badiiy va huquqiy ma'lumotlarni qamrab olishi aks etgan. 2-moddada esa raqamli merosdan foydalanish imkoniyatlari keltirilgan bo'lib, uning jamiyat uchun ochiqligi, asossiz cheklovlariga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilangan. 3-4-moddalarda raqamli merosning zaifligi tahlil etiladi; ya'ni texnologiyalar tez eskirishi oqibatida raqamli ma'lumotlarning kelajak avlodga yetib borishi xavf ostida qolishi ta'kidlanadi. Shuningdek, Haritada har bir davlat o'z hududida mavjud raqamli merosni asrash strategiyasini ishlab chiqishi (5-modda), yagona mezon asosida ularni saralab olishi (6-modda) va institutsional muhit yaratishi (7-modda) lozimligi ko'rsatilgan.

Mazkur Haritadan pedagogik tadqiqotimiz uchun quyidagi muhim konseptual jihatlarni ajratib olishimiz mumkin:

1. Raqamli axborotlarning barchasini birdek asrab qolish imkonsiz bo'lgani sababli, oliy ta'lim talabalarida, xususan, folklor ijrochiligi yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlarda tahliliy va saralovchi media-kompetentlik shakllangan bo'lishi lozim (6-moddaga asosan);

2. Talabalar nafaqat video va audio fayllarni oddiy yozib olish ko'nikmasiga, balki texnologik eskirishning oldini olish uchun ularni eski formatlardan yangi, zamonaviy formatlarga o'tkaza olish (konvertatsiya va restavratsiya qilish) malakasiga ham ega bo'lishlari shart (3-moddaga asosan).

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konvensiya (2003) – 9 ta bo'lim va 40 ta moddadan iborat bo'lib, jahon miqyosida nomoddiy

madaniy boyliklarni asrash borasidagi eng mukammal huquqiy-metodik manbadir. Konvensiyaning III bobida (11-15-moddalar) meros muhofazasini milliy darajada tashkil etish, V bobida esa xalqaro hamkorlik tizimi belgilangan. Mazkur konvensiya tadqiqotimiz uchun huquqiy-pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi va buni quyidagicha izohlash mumkin:

- Nomoddiy madaniy meros an'analari qadimdan "ustoz-shogird" tizimi asosida yuzma-yuz o'tib kelgan bo'lsa, bugungi axborotlashgan jamiyatda u mediatizatsiyalashgan kommunikatsiya shakliga o'tmoqda;

- Nomoddiy madaniy meros muhofazasini tashkil etishda talabalarda maqsadli media-kontent (videodarslar, virtual etnografik ekspeditsiyalar, etno-bloglar) yaratish ko'nikmasi takomillashadi va xalq ijodiyotining ijtimoiy iste'moli kengayadi;

- Talabalarining kasbiy-media kompetentligi natijasida an'anaviy folklor unsurlari zamonaviy jamoatchilik (ayniqsa, yoshlar) tomonidan yangicha, jozibador formatda qabul qilinadi.

Shu sababli, ushbu Konvensiya folklor ta'limi yo'nalishi talabalarining media-faoliyati uchun uchta asosiy funksional jihatni belgilab beradi: transmissiv (merosni buzmasdan raqamli uzatish), instrumental (ta'limiy-muhofaza vositasi) va kommunikativ (jamoatchilik ishtirokini ta'minlash).

4. Xulosa (Conclusion)

Xalqaro strategik va huquqiy-metodik hujjatlarning komparativ tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy oliy ta'lim makonida bo'lajak folklor va musiqiy ta'lim mutaxassislarining kasbiy-media kompetentligini shakllantirish shunchaki texnik ehtiyoj emas, balki milliy o'zlikni saqlab qolish bilan bog'liq pedagogik zaruriyatdir.

Grunvald deklaratsiyasidan tortib to Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasigacha bo'lgan hujjatlar tizimi

oliy ta'lim talabalarini medianing passiv iste'molchisidan milliy merosning faol raqamli targ'ibotchisi darajasiga ko'tarishni talab etadi. Bo'lajak mutaxassislarning media-kompetentligi an'anaviy xalq ijodiyoti

namunalarini zamonaviy raqamli formatlarga muvaffaqiyatli o'tkazish, ularning sofligini saqlash va global axborot makonida o'zbek etnomadaniyatining nufuzini oshirishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. UNESCO. Grunwald Declaration on Media Education. – Grunwald: UNESCO, 1982. – 2 p.
2. UNESCO. Alexandria Proclamation on Information Literacy and Lifelong Learning. – Alexandria: UNESCO, 2005. – 2 p.
3. UNESCO. Fez Declaration on Media and Information Literacy. – Fez: UNESCO, 2011. – 2 p.
4. UNESCO. Global Media and Information Literacy Assessment Framework: Country Readiness and Competencies. – Paris: UNESCO, 2013. – 157 p.
5. UNESCO. International Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. – Paris: UNESCO, 2003. – 14 p.
6. UNESCO. Charter on the Preservation of Digital Heritage. – Paris: UNESCO, 2003. – 4 p.